

IJTIMOYIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH KESIMIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Xamdamov A.E

Mustaqil izlanuvchi

Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Germaniya va Shveysariya sog'liqni saqlash tizimlarining muvaffaqiyati negizida "Bemorning imkoniyatlarini kengaytirish" tamoyili yotadi va bu konsepsiya bemorni shunchaki xizmat oluvchi sub'ekt emas, davolash jarayonining teng huquqli ishtirokchisi hamda tizim sifatini nazorat qiluvchi subyekt sifatida belgilaydi. Germaniya tajribasida ushbu tamoyil 2013-yilda qabul qilingan "Bemor huquqlari to'g'risida"gi qonun bilan mustahkamlangan bo'lib, u shifokor zimmasiga "Birgalikda qaror qabul qilish" standartiga asoslanadi⁴⁵.

Germaniya federal sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bunday ochiqlik natijasida bemorlar ongli ravishda jarrohlik amaliyotlaridan ko'ra konservativ davolashni afzal ko'rishni sababli jarrohlik amaliyotlari soni 20 foizga, tibbiy xatoliklar esa 15 foizga qisqargan.

Shu bilan bir qatorda, Shveysariya tizimi "Tanlov erkinligi" tamoyiliga asoslangan bo'lib, har bir fuqaro o'z sug'urta provayderini erkin tanlashi orqali tibbiyot muassasalari o'rtasida bemor uchun "sifat poygasi"ni vujudga keltirgan. O'z navbatida, Shveysariyada aholining 91 foizi xizmatlar sifatidan qoniqishi aynan shu bozor nazorati bilan bog'liqdir⁴⁶.

Moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda Shveysariya qo'llayotgan "Ikki bosqichli nazorat" mexanizmi alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga ko'ra sug'urta kompaniyasi tomonidan to'lanadigan har bir mablag' bemor tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiyliigi bo'yicha tasdiqlanishi shart. Bu esa shifoxonalar tomonidan qilinmagan muolajalarni hisobga yozish holatlarini 12-18 foizga qisqartirgan. "Transparency International" tahlillari ko'ra, sog'liqni saqlashda korrupsiya ko'rsatkichi nazorat organlarining ko'pligidan emas, balki bemorning o'z tibbiy ma'lumotlari va sug'urta pullari ustidan bevosita raqamli nazoratiga ega bo'lishi natijasida eng past darajaga tushadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu tamoyilni joriy etish uchun bemorning elektron tibbiy kartasini muassasadan fuqaroning shaxsiy boshqaruviga o'tkazish, poliklinika reytingini faqat bemorlarning xolis bahosi asosida moddiy rag'batlantirishga bog'lash hamda davlat tibbiy sug'urtasi doirasida "Virtual hamyon" tizimini joriy etish orqali byurokratik to'siqlarni aholining o'zi tomonidan tabiiy bartaraf etilishini ta'minlash yagona strategik yo'l hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: "Virtual hamyon" tizimi - bu fuqaroga ajratilgan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari limitini masofaviy nazorat qilish imkonini beruvchi raqamli vositadir.

Estoniya tajribasida aholining 99 foizi elektron sog'liqni saqlash kartalari bilan qamrab olingani tizimdagi ochiqlikning oliy darajasini ko'rsatadi. Ushbu mamlakatda

⁴⁵ "Bemor huquqlari to'g'risida"gi qonun - bemorga barcha alternativ variantlar, ularning xatarlari va narxlariga haqida to'liq ma'lumot berish majburiyatini yuklaydi

⁴⁶ <https://www.commonwealthfund.org> "International health policy center Switzerland" 2025y.

retseptlarning 98 foizi raqamli shaklda rasmiylashtirilishi natijasida qog'ozbozlik va ma'muriy xarajatlar yillik YaIMning qariyb 2 foizigacha ya'ni yiliga o'rtacha 500-600 million yevrodan ortiq mablag'ni tejalishiga xizmat qildi va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini to'liq ta'minladi⁴⁷.

O'zbekiston sharoitida ushbu modelning joriy etilishi birlamchi bo'g'inda "Virtual hamyon" tizimi orqali har bir so'mning harakatini bemor tomonidan tasdiqlash mexanizmini yaratadi. Natijada, tizimda inson omili aralashuvi keskin kamayib, tibbiy xizmatlar narxi va sifati ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. Raqamlashtirishning ushbu darajasi nafaqat shaffoflikni, balki aholining sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan fundamental ishonch indeksini kamida 40 foizga oshirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya tajribasiga ko'ra, sog'liqni saqlash tizimida kadrlar salohiyatini yuksaltirish strategiyasi bugungi kunda shunchaki an'anaviy akademik o'qitish bilan cheklanib qolmay, balki o'z isbotini topgan sun'iy intellekt hamda "Smart Hospital" ekotizimlarini chuqur o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanmoqda. Koreyalik shifokorlarning 94 foizi markazlashtirilgan klinik qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi tizimlardan muntazam foydalanishi natijasida birlamchi diagnostika aniqligi darajasi 40 foizga oshdi va bu inson omili bilan bog'liq tibbiy xatoliklar hamda asoratlarni minimallashtirishning eng samarali mexanizmiga aylandi⁴⁸.

Mazkur raqamli platformalar shifokorlarning qog'ozbozlik va hisobot tayyorlash kabi kundalik ma'muriy yuklamasini haftasiga o'rtacha 12 soatga qisqartirishi natijasida mutaxassislarning asosiy ish vaqti bevosita bemor bilan muloqot qilishga hamda murakkab klinik holatlarni chuqur tahlil qilishga yo'naltirilmoqda.

Kadrlar salohiyatining bunday yuqori texnologik instrumentlar bilan boyitilishi birlamchi bo'g'indagi o'lim ko'rsatkichlarini 15-20 foizga kamaytirishga xizmat qiluvchi fundamental omil bo'lib, bu jarayon tibbiy xizmat sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqadi.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimida resurslarni optimallashtirish, dori vositalari va tibbiy buyumlar yetkazib berish zanjirini avtomatlashtirish, resurslarning maqsadsiz sarflanishini 22 foizga qisqartirish mumkin. Janubiy Koreyada raqamli logistika tizimining joriy etilishi dori-darmonlarni yetkazib berishdagi xatoliklar koeffitsientini 0,01 foizgacha tushirish imkonini berdi va omborlardagi inventarizatsiya jarayonini to'liq shaffof qildi.

Logistik zanjirdagi bunday barqarorlik birlamchi bo'g'indagi har bir tibbiyot muassasasining dori-darmon bilan uzluksiz ta'minlanishini kafolatlab, bemorlarning shaxsiy xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirdi. O'zbekiston sharoitida logistikani raqamlashtirish "markazdan xonadonbay" tamoyili asosida dori vositalarining har bir qadamini GPS va QR kod orqali kuzatish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, farmatsevtika bozoridagi sun'iy tanqislikni bartaraf etib, aholiga ko'rsatilayotgan farmatsevtik xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqadi.

Rivojlangan mamlakatlarda bolalarni vaksinalar bilan yuqori qamrab olish milliy darajada kompleks yondashuvlar orqali ta'minlanadi. Asosiy maqsad – jamoaviy

⁴⁷ <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov> "E-solutions in Estonian community pharmacies" 2022 y.

⁴⁸ <https://biz.chosun.com> "AI transforms Korean healthcare with diagnostics, surgery, and space medicine" 2025 y.



immunitetni saqlash, ayniqsa yuqumliligi yuqori kasalliklar (masalan, qizamiq) uchun kamida 95% qamrovga erishishdir. Buning uchun qonunchilik talablari, moliyaviy to'siqlarni bartaraf etish, raqamli reestrlar, eslatma-qo'ng'iroq tizimlari, "catch-up" (jadvaldan qolganlarni yetib olish) kampaniyalari va patronaj xizmatlari birgalikda qo'llaniladi.